

**ВАЗИРЛАР МАҲҚАМАСИ ҲУЗУРИДАГИ ИМОМ БУХОРИЙ ХАЛҚАРО
ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ МАРКАЗИ**
**ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚАРО ИСЛОМ АКАДЕМИЯСИ ҲУЗУРИДАГИ
МАЛАКА ОШИРИШ МАРКАЗИНинг САМАРҚАНД ВИЛОЯТИ**
МИНТАҚАВИЙ ФИЛИАЛИ
ҲАДИС ИЛМИ МАКТАБИ
САМАРҚАНД ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
САМАРҚАНД ДАВЛАТ АРХИТЕКТУРА ҚУРИЛИШ ИНСТИТУТИ
САМАРҚАНД ИҚТИСОДИЁТ ВА СЕРВИС ИНСТИТУТИ
ЖИЗЗАХ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА ИНСТИТУТИ
ЎЗБЕКИСТОН ФАЙЛАСУФЛАРИ МИЛЛИЙ ЖАМИЯТИ

**«ИНСОН, УНИНГ ЭЪТИҚОДИ, ЖАМИЯТ, КОИНОТ: ТАРАҚҚИЁТ
МУАММОЛАРИ ВА ҲОЗИРГИ ЗАМОН»**

МАВЗУСИДА ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ АНЖУМАН

МАТЕРИАЛЛАР ТҮПЛАМИ

САМАРҚАНД-2020

“Инсон, унинг эътиқоди, жамият, Коинот: тараққиёт муаммолари ва ҳозирги замон” мавзуидаги Республика илмий-амалий анжуман материаллари // ИБХИТМ нашр. Самарқанд 2020 й. 288 б.

“Инсон, унинг эътиқоди, жамият, Коинот: тараққиёт муаммолари ва ҳозирги замон” мавзуидаги Республика илмий-назарий анжуман материалларида қўйидаги йўналишларда илм, маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантиришнинг ижтимоий фалсафий масалалари, онтология, гносеология, мантиқ, космология, фазо-вакт ва табиатшунослик фалсафаси, илмий-маънавий мерос ва фалсафа тарихи, инсон ва жамият тараққиётининг долзарб масалалари, маънавият, миллий ғоя, диншунослик ва бағрикенглик, инсон, унинг эътиқоди, жамият, миллий хавфсизлик, таълим тизими ривожи ва истиқболи масалаларига доир мақолалар шунингдек таниқли файласуф, жамоат ва илм-фан арбоби, устоз-олим, фалсафа фанлари доктори, профессор Тураев Бахтиёр Омонович таваллудининг 70 йиллигига бағищланади.

Таҳрир ҳайъати аъзолари.

Профессорлар Б.Каримов, У.Абилов

Доцентлар А.Азизқулов, Ж.Очилов

Масъул мухаррирлар:

Фалсафа фанлари доктори, профессор Абилов Урал Муродович

Фалсафа фанлари доктори, профессор Каримов Бахтиёр Рахманович;

Тарих фанлари номзоди, доцент Зиёдов Шовосил Юнусович

Фалсафа фанлари номзоди, доцент Азизқулов Акрам Абдурахмонович

Фалсафа доктори (PhD) Очилов Жамшид Абдурашидович

Тақризчилар:

Фалсафа фанлари доктори, профессор Каримов Соибназар;

Фалсафа фанлари доктори, профессор Яхшиликов Жўрабой;

Фалсафа доктори (PhD) Умаров Шукурулло Хурсанмурадович.

Нашр мухаррири: Муҳаммадиев Отабек.

Уибу нашрда келтирилган барча маълумотлар ва фикр-мулоҳазалар муаллифларга тегишили бўлиб, таҳрир ҳайъати аъзоларининг фикрига мос келмаслиги мумкин. Нашрда келтирилган рақамлар, статистик маълумотлар ва фикр-мулоҳазалар учун муаллифлар масъул ҳисобланади.

Saidqulov N. Islom falsafasida ta’lim -tarbiya masalalari va uning globallashuv davridagi zarurati	215
Муртазаев У. Роль и значение религии Ислам в воспитании, сохранении общечеловеческих ценностей и гуманистических идей в эпоху глобализации	219
Музafferov Н. Шайх Худойдод Вали фаолиятида диний бағрикенглик ғоялари	223
VIII. ИНСОН, УНИНГ ЭЪТИҚОДИ, ЖАМИЯТ, МИЛЛИЙ ХАВФСИЗЛИК МАСАЛАЛАРИ	228
Турсунов Б. Алишер Навоий илм аҳлининг жамият тараққиётидаги аҳамияти хусусида (“Маҳбуб ул-Кулуб” асари мисолида)	228
Самадов А. Диний идеалнинг шахс эстетик идеали билан диалектик алоқадорлиги	233
Ийманова Д., Ийманов Ж. Жамиятдаги оғир иллат бўлмиш ҳасад балосидан эҳтиёт бўлайлик	238
Ўрмонов X. Ўзбекистон аёлларининг жамият ҳаётида туттган ўрни	241
Azamov T. Millatlararo munosabatlar va diniy bag’rikenglik g’oyasining bosh qomusimizda ifoda etilishi	244
Самадов X. Ислом динида халқ билан мулоқот қилиш масаласи	247
Алимов А. Ҳусайн Воиз Кошифий маънавий меросининг тарбиявий аҳамияти	252
Юлдошев А. Тарбия ҳақида Абу Али Ибн Синонинг фикирлари	255
IX. ТАЪЛИМ ТИЗИМИ РИВОЖИ ВА ИСТИҚБОЛИ МАСАЛАЛАРИ	259
Салимов Ш. Организация компетентностно – ориентированного обучения в военно – техническом вузе	259
U.Qurbanova O’. Mustaqillik yillarda O’zbekistonda yangilanga pedagogik fikrlar taraqqiyoti	261
Ўрмонов X. “Диншунослик” ва “Дунё динлари тарихи” фанларини ўқитишида инновацион технологиялардан фойдаланиш	265
Haydarova D. Milliy ta’lim-tarbiyada Ustoz-shogird an’analari	269
Абдивоҳидов С.А., Алимов А.Н. Жадидчилик ҳаракатининг ерик вакили Маҳмудхўжа Беҳбудий тилнинг давлат ва жамият ҳаётига таъсири ва унинг аҳамияти ҳақида	273
Мустафаев Ж., Камбаров А., Сайдкулов А., Бултаков Ш. Маънавий баркамол инсонни тарбиялаш ғоявий-сиёсий маданият негизи	280
Очилов Ж. Ёшлар тарбиясида ижтимоий-гуманитар фанларни ўрни	284

Применение педагогических технологий в учебном процессе позволяет организовать на практике компетентностно-ориентированное обучение, в основе которого можно выделить такие элементы, как многообразие вариантов развития личности, право выработки личностного отношения к изучаемому, право проектирования своей деятельности, право выбора трактовок изучаемых явлений, предметов, способа учения, усвоения, информационного источника, уровня усвоения.

Технологизация компетентностно - ориентированного образовательного процесса предполагает специальное конструирование учебного текста, дидактического материала, методических рекомендаций к его использованию, типов учебного диалога, форм контроля за личностным развитием обучающегося курсанта в ходе овладения знаниями. Только при наличии дидактического обеспечения, реализующего принцип субъектности образования, можно говорить о построении компетентностно-ориентированного процесса.

Список литературы:

1. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим тизимини 2030 йилгача Ривожлантириш Концепсиясини тасдиқлаш тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони
2. Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису, от 24.01.2020 г.
3. Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на заседании Совета безопасности в расширенном составе, 2018 г

MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA YANGILANGA PEDAGOGIK FIKRLAR TARAQQIYOTI

Qurbanova O'.U. BuxDU katta o'qituvchisi

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, uzluksiz ta'lif tizimini tubdan isloq qilish, kadrlar tayyorlash sifatini keskin oshirish, xalqaro standartlar darajasiga mos raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlash maqsadida keng ko'lamli ishlar amalga oshirila boshlandi. Ta'lif va fan sohasini rivojlantirish maqsadida “uzluksiz ta'lif tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lif xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish; ta'lif va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida ta'lif sifati hamda samaradorligini oshirish” ustuvor vazifa sifatida belgilanayotganligi, bilimlarni egallashning zamonaviy metodikalarini ishlab chiqish, ta'lif olish jarayonini takomillashtirishda innovatsion

texnologiyalardan foydalanish bugungi kunning dolzarb vazifasiga aylanmoqda. Ta’lim tizimining axborotlashtirilishi kasbiy faoliyatda axborot texnologiyalardan foydalana olish, kasbiy mahoratni oshirib borish, yoshlarda axborotlardan to’g’ri foydalanish madaniyatini shakllantirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Bugungi kunda yoshlarimiz nafaqat o’quv dargohlarida, balki radio- televideenie, matbuot, Internet kabi vositalar orqali ham rang-barang axborot va ma’lumotlarni olmoqda. Juhon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o’rab-chirmab, “uni o’qima”, “buni ko’rma” deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini “temir” devor bilan o’rab olish aslo mumkin emas. Yoshlar orasida Internet madaniyatini shakllantirish bugungi kunning o’ta muhim vazifasiga aylanmoqda.

Yoshlarda mobil aloqa va Internet tarmoqlaridan foydalanish kuchaymoqda. Bu avvalo, jamiyatda zamonaviy axborot texnologiyalari rivojlanishiga yoshlarning qiziqishi kuchayayotganidan guvohlik bersa, ikkinchi tomondan, aynan mafkuraviy tahdidlar, “ommaviy madaniyat”ning turli ko’rinishlari ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar ongiga kirib kelayotgani barchamizni tashvishga solmoqda. Olib borilayotgan keng miqyosdagi tadbirlar yosh avlodda axborot olish madaniyatini shakllantirish, ular ong-u shuurini turli xil yot illatlar ta’siridan himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Axborot kommunikatsion texnologiyalarining tezkor ravishda rivojlanishi vaqt va masofani qisqartirib, jahon sivilizatsiyasi ummoniga keng yo’l ochib bermoqda. Jamiyatda paydo bo’layotgan axborot resurslari hajmining jadal ortib borishi axborot bo’ronini vujudga keltirmoqda. Bu resurslardagi ma’lumotlarning barchasi ham ishonchli, aniq faktlarga asoslangan, jamiyat rivoji uchun xizmat qiladigan axborotlar deyish ancha qiyin.

Jamiyatda hosil bo’layotgan axborot bo’ronidan yosh avlodni himoya qilishda, ularda axborot madaniyatini shakllantirish o’ta dolzarb masala hisoblanadi.

Axborot madaniyati nima va nima uchun aynan bugungi kunda axborot madaniyatiga ehtiyoj sezmoqdamiz?

“Axborot madaniyati” tushunchasi ikki tushuncha: axborot va madaniyat tushunchalariga asoslanadi. Madaniyat yondashuvi doirasida axborot madaniyatini axborotlashgan jamiyatda insonning yashash faoliyati yo’li sifatida, insoniyat madaniyati shakllanishi jarayonining tashkil etuvchisi sifatida qaralsa, axborot yondashuvi doirasida esa, unga axborot talabini qondirishga qaratilgan barcha axborot faoliyati bilimlari majmuasi sifatida qaraladi.

So’nggi yillarda axborot madaniyati tushunchasini shaxsning axborot va madaniyat komponentlarining integratsiyalashuvi sifatida yaxlit qarash tendensiyasini kuchaytirmoqda. Buning natijasida axborot madaniyati umuminsoniy madaniyatning

bir qismi sifatida qarash strategiyasi yuzaga kelmoqda. Aynan mana shu axborot madaniyatining asl mohiyatini ochib berishga imkon yaratmoqda.

Axborot madaniyati shaxsning o'quv, ilmiy-bilish, mustaqil ta'lif olish, dam olish va boshqa ko'rinishdagi faoliyati jarayonida paydo bo'ladigan axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan, shaxsiy axborot faoliyatini samarali tashkil qilishni ta'minlaydigan bilimlar, malaka va ko'nikmalarning tizimlashtirilgan majmuasidir. Umuman olganda, axborot madaniyati axborotdan samarali foydalanish bilim va ko'nikmalari bo'lib, kerakli axborotni axborot resurslaridan axborot texnologiyalarining barcha ko'rinishlari (kompyuter va Internet tarmog'i texnologiyalari) orqali qidirishga oid turli xil bilimlardan tashkil topadi.

Bugungi hayotning o'ta o'zgaruvchanligi axborotlashgan jamiyatda bir qator yangi atributlarni yuzaga keltirmoqda. Axborot va bilim jamiyatning asosiy o'zgartiruvchi kuchiga aylandi. Uzluksiz ta'lif va shaxsning yangi ixtisoslik olishga qobiliyati ijtimoiy statusini saqlab qolishning ajralmas qismiga aylanmoqda. Har bir insonning taqdiri yangi axborotni o'z vaqtida topish, olish, bir qiymatli qabul qilish va samarali foydalanish qobiliyatiga bog'liq bo'lib bormoqda.

Insoniyat stivilizatsiyasining axborotlashgan jamiyatga qadam qo'yishi - insonlarni yangi hayot sharoitiga va yuqori avtomatlashtirilgan axborot muhitida professional faoliyatga o'z vaqtida tayyorlanish, mustaqil ravishda harakat qilish, muhit imkoniyatlaridan samarali foydala olish va salbiy ta'sirlardan o'z vaqtida himoyalana olishni o'rgatish kabi jiddiy muammolarni yuzaga keltira boshladi. Bu esa, ta'lif tizimida axborot madaniyatining ahamiyati orttiradi.

Yangi axborot texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi islohotlar o'z navbatida oliy ta'lif muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan talabga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Oliy ta'lif muassasasi yangi sharoitda bitiruvchining kasbiy malakasi, ma'lum bir soha bo'yicha bilim va ko'nikmalarning shakllanganligiga, balki mustaqil ravishda o'z bilimlarini boyitib borish, turli xil muammolarni qo'yish va ularni hal qilish, muqobil yechimlarni taklif etish, ular orasidan eng samaralisini tanlab olish malakasiga ham yo'naltirishi lozim. Bu maqsadga erishish ma'lum darajada axborot madaniyati saviyasiga bog'liq bo'ladi.

Bo'lajak mutaxassisning axborot tayyorgarligi o'zining axborot ehtiyojini ifodalash, axborot so'rovlарini shakllantirish, axborot resurslari haqida bilimga ega bo'lish, elektron kutubxona imkoniyatlaridan foydalana olish qobiliyati, axborotlarni qidirish, ularni qayta ishslash, axborotlarga tanqidiy yondashish, ularni tushunish va baholash hamda ulardan ijodiy foydalana olish ko'nikmalari, zamonaviy axborot kommunikastiya texnologiyalaridan foydalana olish ko'nikmasiga ega bo'lishni talab etadi.

Ta’limda axborot madaniyatining ahamiyati ortishi ko’zga tashlanmoqda. Foydalanuvchi pedagog va o’quvchilarning axborot madaniyatini rivojlantirish bo’yicha faoliyatning dolzarbligi o’qitishning yangi modelini yaratishga yo’naltirilgan zamonaviy ta’lim tizimidagi o’zgarishlar bilan bog’liq bo’lib, axborot resurslariga asoslanadi. Shuning uchun ta’lim samaradorligining zaruriy sharti ta’lim hamjamiyatining yuqori axborot madaniyati sanaladi. Ta’lim hamjamiyati axborot resurslari yaratuvchilar va tashkil etuvchilari hamda axborot resurslari iste’molchilaridan tashkil topadi. Axborot resurslari yaratuvchilar va tashkil etuvchilariga - kutubxona xodimlari va professor-o’qituvchilar kirsa, axborot iste’molchilariga - talabalar va o’z bilimini boyitib borishga intiluvchi pedagoglarni kiritish mumkin.

Real hayotda hamda virtual muhitda katta miqdorda axborot oqimi paydo bo’lishi ularni qidirish, to’plash, qayta ishslash, analiz va sintez qilishni murakkablashtirmoqda. Shuning uchun bugungi kunda bunday axborot oqimida har xil axborot resurslaridan foydalanib, moslashish ko’nikmalarini egallash bugungi kun talabasidan ma’lum axborot madaniyatini egallashni talab qilmoqda.

O’qituvchi dars o’tar ekan u darsning ixtiyoriy bosqichini yangi texnik vositalarni joriy etish orqali jonlantirishi mumkin. O’quv jarayoniga axborot-kommunikastiya texnologiyalarini tatbiq qilish o’qituvchiga darslarda o’quv-biluv faoliyatining turli shakllaridan foydalanishga, o’quvchilarning mustaqil faoliyatini faollashtirishga va aniq maqsadga yo’naltirishga imkon beradi. Axborot-kommunikastiya texnologiyalarini o’quv axborotidan foydalanishga imkoniyat beruvchi, axborotni qidirib topish, yig’ish va axborot manbasi bilan ishslash, shu jumladan internet tarmog’idagi manbalar, shuningdek axborotni saqlash va etkazib berish vositasi sifatida qarash mumkin. O’quv jarayonida axborot-kommunikastiya texnologiyalaridan foydalanish o’quv materiali sifatini oshirishga va ta’lim samaradorligini kuchaytirishga yordam beradi.

Ixtiyoriy pedagogik texnologiya – bu axborot texnologiyasidir, chunki ta’lim berish texnologik jarayoni asosini axborotni olish va uni o’zgartirishni tashkil etadi. Kompyuterdan foydalanishga asoslangan texnologik ta’lim uchun kompyuter texnologiyalari iborasi mos keladi. O’qitishning kompyuter (yangi axborot) texnologiyalari-bu ta’lim oluvchiga beriladigan axborotni tayyorlash va etkazib berish jarayoni bo’lib, uni amalga oshirish vositasi kompyuter hisoblanadi. Amaliyotda o’qitishning axborot texnologiyalari axborot (EHM, audio, video, kino) vositalaridan foydalanuvchi barcha maxsus texnik texnologiyalarga aytildi.

Dars jarayonida axborot-kommunikastiya texnologiyalaridan foydalanish o’quvchilarga o’zlarini o’rab turgan olamning axborot oqimida to’g’ri yo’nalishga tushib olishlariga, axborot bilan ishslashning amaliy usullarini egallashga, zamonaviy texnik vositalar yordamida axborot almashishga imkoniyat beruvchi ko’nikmalarni

rivojlantirishga yordam beradi. Dars jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining qo'llanilishi ta'lim olish uchun ijobiy motivatsiyani kuchaytiradi, ta'lim oluvchilarning bilim olish faoliyatini faollashtiradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari didaktik materiali mazmuni va shakli bo'yicha turli-tuman. Elektron darsliklar, videorolik, musiqa, ma'lum mavzudagi taqdimotlar, rivojlantirish xususiyatiga ega turli testlar, topshiriqlar va boshqalar. Darslarda axborot texnologiyalarini qo'llash bilish faoliyatini faollashtiruvchi asosiy prinstiplar-ishonish va teskari aloqa, tadqiqotchilikni to'liq amalga oshirish imkoniyatini beradi. Ushbu prinstiplarning amalga oshirilishini axborot texnologiyalari qo'llanilgan barcha darslarda kuzatish mumkin.

Axborot-kommunikastiya texnologiyalaridan foydalanib, dars jarayonini tashkil etishga tayyorlanishda o'qituvchi shuni esdan chiqarmasligi zarurki, bunda dars rejasini uning maqsadidan kelib chiqib loyihalashi, o'quv materialini tanlab olishda esa asosiy didaktik prinstiplarga amal qilishi (ilmiylik, izchillik, tizimlilik va ketma-ketlik, differenstial yondashuv va b.) lozim.

Axborot-kommunikastiya texnologiyalaridan foydalanib, tashkil etilgan dars quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi.

1. Moslashuvchanlik - kompyuterni ta'lim oluvchining individual xususiyatlariga moslashtirish;
2. Boshqaruvchanlik - har qanday vaziyatda ta'lim jarayonini o'qituvchi tomonidan o'zgartirilishi mumkinligi;
3. O'qitishning dialog va interfaollik xususiyati - axborot-kommunikastiya texnologiyalari o'qituvchi va o'quvchi harakatiga munosabat bildirish, javob berish xususiyatiga ega, ular bilan dialogga kirishishi mumkin, bu esa kompyuterli ta'lim metodining eng asosiy xususiyatini tashkil etadi;
4. Yakka va guruhli ta'limni tashkil etishning eng qulayligi;
5. Dars jarayonida o'quvchilarning ko'tarinki aqliy ishchanlik kayfiyatini ushlab turish.

Ta'lim jarayonida axborot-kommunikastiya texnologiyalarining qo'llanilishi o'quv jarayoni samaradorligini oshiradi, o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan faolliklarini kuchaytiradi. Buning uchun o'qituvchi bir qator texnik, ya'ni kompyuterda ishlash uchun dasturiy ta'minotdan foydalana olish, uslubiy, ya'ni o'quvchilarni savodli o'qitish uchun kerak bo'ladigan ko'nikmalar, texnologik, ya'ni darsda o'qitishning turli axborot vositalaridan samarali foydalanish uchun kerak bo'ladigan ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.

Xulosa qilib yatganda, bugungi yangilanayotgan jamiyatda O'zbekistonda pedagogik axborot-innovatsiya texnologiyalar orqali pedagogik tizimni takomillashtirish, shu asosda ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishga

yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va ta'lim jarayoniga tatbiq etish davr talabi hisoblanadi.

**“ДИНШУНОСЛИК” ВА “ДУНЁ ДИНЛАРИ ТАРИХИ”
ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН
ФОЙДАЛАНИШ**

Ўрмонов Ҳусниддин Баҳридин ўғли

Гулистон давлат университети тузилмасидаги
Қатағон қурбонлари хотираси музейи экскурсаводи

Инновациялар узок тарихга эга бўлиб, оммавий педагогик ҳаракат билан боғлиқдир. Масалан, 1980-чи йилларнинг иккинчи ярмидаёқ “ҳамкорлик педагогикаси”, “ўқитувчи-новаторлар ҳаракати” мавжуд бўлган. Ҳозирги кунда эса янгиликлардан фойдаланишнинг оммавий характеристири ошиб бормоқда. Бундан келиб чиқиб, янги билимларга, инновация, инновацион жараён, инновацион технология каби каби янги тушунчаларни англашга эҳтиёж кескин тус олмоқда. Инновацион технологиялар ривожлантирувчи таълим билан боғланган. Маълумки, нимани ўқитиш ва қандай ўқитиш масаласи асос қилиб олинадиган педагогик-психологик тасаввурларга боғлиқ ҳолда турлича ҳал қилинади. Дунё динлари тарихини ўқитишда қандай ёндашувлардан фойдаланиш мумкинлигига назар ташлайлик.

Муаммоли-изланувчи ёндашув. Мазкур ёндашувнинг хусусияти “Кашфиёт орқали таълим олиш” ғоясини амалга оширишдан иборат. Мазкур ёндашув доирасида талабалар ўзлари маълумотларни, воқеа-ҳодисаларни таҳлил қилиб, муаммоли саволларга жавоб топишлари керак. Бу ёндашувда дарсни ташкил қилишнинг жуфтликда, микромурухларда, гурухлараро ишлаш шакллари кўлланилади. Муаммоли-изланувчи ёндашувнингтаянч тушунчалари: муаммоли вазият, муаммоли савол, ўқув муаммоси, ижодий топшириқ. Талабалар тафаккурини бошқариш воситаси эса муаммоли саволлар бўлиб, улар ўқув муаммосининг моҳиятини ва номаълум бўлган билимнинг излаш доирасини кўрсатиши керак. Бу усулдан асосан янги материални, масалан, маълум даврда у ёки бу минтақада, мамлакатда маданиятнинг, диний таълимотларнинг ривожланиши, диннинг тарқалиши билан таништиришда фойдаланиш мумкин. Жуфтликда ёки микромурухда ишлаётган талабаларга олдинги даврда, ёки бошқа минтақа ё мамлакатдаги жараёнлар билан солишишириш, янги хусусиятларни топиш, бунга нималар таъсир қўрсатганини аниқлаш каби топшириклар берилади. Бундан кейин муҳокама ўтказилади. Бу босқичда мавзу доирасида муаммоли вазиятни тузиш муҳимдир. Муаммони талабалар олдига қўйиб, дарсни иккита шаклда ўтказиш мумкин: 1) дарс-баҳс (дискуссия); 2) дарс-очик мунозара (диспут).